

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

B.X. MAMATQULOV, B.Q. UTANOV

QISHLOQ XO‘JALIGI STATISTIKASI

Darslik

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi
tomonidan oliy o‘quv yurtlarining “230000– Iqtisod” ta‘lim
sohasining va “5231400 – Statistika (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)”
ta‘lim yo‘nalishlarining talabalari uchun
darslik sifatida tavsiya etilgan*

TOSHKENT – IQTISODIYOT – 2020

KIRISH

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mamlakatimiz hukumati tomonidan qishloq xo‘jaligini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratib kelinmoqda.

Qishloq xo‘jaligi O‘zbekiston iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri bo‘lib, 2018- yilda dastlabki hisob-kitoblarga ko‘ra mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 0,2 foizga oshdi.

O‘zbekiston Respublikasi agrar tarmog‘ida iqtisodiy islohotlar chuqurlashib borayotgan sharoitda qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlarini statistik tahlil qilish, qishloq xo‘jaligi tarmog‘ini isloh qilish tajribasini umumlashtirish va uning samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqishning ahamiyati oshib bormoqda. Yuqorida qayd etilganlar agrar iqtisodiyotdagi muammolarni hal qilishning maqbul yechimlarini topish va uning o‘zini modernizatsiyalash orqali milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish jarayoniga ta‘sirini kuchaytirish imkonini beradi. O‘zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiyalash sharoitida oliy ta‘lim yo‘nalishlari va ixtisosliklar bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash hozirgi zamon dolzarb masalasi bo‘lib, u barcha fanlar bo‘yicha xalqaro talab va andozalarga to‘la javob beradigan mazmunli darsliklar yaratishni taqozo etadi. Xususan, yetuk oliy ma‘lumotli iqtisodchi mutaxassislarni tayyorlash hozirgi vaqtda hayotiy zaruriyatga aylangan.

Shu munosabat bilan iqtisod yo‘nalishidagi oliy o‘quv yurtlarining “Statistika” ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha ta‘lim oluvchi iqtisodchilarni tayyorlashda “Qishloq xo‘jaligi statistikasi” kursini o‘qitilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishishi bilanoq o‘ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo‘lini tanlab oldi. Ushbu taraqqiyot yo‘li ta‘lim tizimini isloh qilish bo‘yicha ham sa‘y harakatlarni boshlanishiga sababchi bo‘ldi. Mamlakatimiz bozor iqtisodiyoti sharoitida faoliyat ko‘rsata boshladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida sifatlil kadrlar tayyorlash masalasi mamlakatimiz oldida turgan eng muhim dolzarb muammoga aylandi. Natijada «Ta‘lim to‘g‘risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qabul qilindi. Ushbu qonunlarga muvofiq Oliy va O‘rta maxsus ta‘lim